

TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINING QO'LLANILISHI

Hamid Akmalov

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jinoyat huquqining alohida instituti – tibbiy yo'sindagi majburlov choralarinig o'ziga xos jihatlari, ularning jinoiy jazodan farqlari, yuridik oqibati, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tufayli vujudga keladigan huquqiy munosabatlar, shaxsning ruhiy kasalligi sababli uni jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini uzaytirish, o'zgartirish yoki bekor qilish bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, aqli rasolik, aqli norasolik, ruhiy holatning buzilishi, ijtimoiy xavfli qilmish, sud-psixiatriya ekspertizasi, sud xulosasi.*

Inson sog'lom yoki kasal ekanligidan qat'i nazar, uning huquqlari qonunga ko'ra bir xil muhofaza qilinishi lozim. Mazkur va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan yana biri jinoyat sodir etgan aqli noraso shaxslarni davolash va ular sodir etishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlarning oldini olish masalasi bo'lib, odamlar sog'lig'ini saqlash, jamiyat xavfsizligini ta'minlash har qanday rivojlangan va demokratik davlatning muhim va asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir.

Mamlakatimiz va aksariyat xorijiy davlatlar jinoyat qonunlariga ko'ra ruhiy kasallarning ijtimoiy xavfliligi ularni majburiy ravishda davolash uchun asos hisoblanadi. Chunki, fuqarolarning huquqlari, erkinligi va qonuniymanfaatlariga qilingan har qanday tajovuz jamiyat uchun ham xavflidir. Qilmishlarning ijtimoiy xavflilik darajasi bir xil bo'lmaganligi sababli jamiyat va fuqarolarni ulardan himoya qilish uslublari ham turlichadir. Jinoyat kodeksiga muvofiq, aqli noraso shaxs jinoyatning sub'ekti bo'la olmaydi, biroq ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxs (ruhiy kasal) jamiyat va insonlar uchun muayyan xavf keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli jinoyat qonunchiligida jinoyatni aqli norasolik holatida sodir etgan shaxslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilinib, ularga nisabatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarinig qo'llanilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 92-moddasida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning umumiy asoslari belgilab qo'yilgan [1]. Ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida yoki hukm chiqarilgunga qadar yoxud jazoni o'tash vaqtida ruhiy kasallikka chalinganligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini anglamaslik yoki o'z harakatlarini boshqara olmaslik holatida sodir etgan qilmishining xususiyatiga ko'ra jamiyat uchun xavfli deb topilsa, sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashi mumkin. Birinchi toifaga Jinoyat kodeksi maxsus qismida javobgarlik belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishlardan birini aqli norasolik holatida sodir etgan shaxslar kiradi. Bu shaxslar ruhiy kasallik tufayli o'z harakatlarining faktik xususiyatini, shuningdek, qilmishning ijtimoiy

xavfliligi va ushbu harakati tufayli biror ob'ektga muayyan zarar yetkazilishi mumkinligini anglab yetmaydi. Aqli noraso shaxs jinoyatning sub'ekti bo'la olmasligi tufayli bunday shaxslar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etsalarda, ularning qilmishida jinoyat tarkibining bir elementi – jinoyat sub'ekti mavjud bo'lmaganligi sababli ular jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bunday toifadagi shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladi. Shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun Jinoyat kodeksining 92-moddasida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Ruhiiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 23-sonli qaroriga ko'ra, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash masalasi hal qilinayotgan shaxslarga doir ishlarni ko'rish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlanishi va ularni bartaraf etishga qaratilgan choralari ko'rilishi shart [2].

Jinoyat kodeksining 18-moddasi 2 va 3-qismlarida ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo'lgan, ya'ni surunkali ruhiy kasalligi, ruhiy holati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa tarzdagi ruhiy kasalligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara olmagan shaxs javobgarlikka tortilmaydi va ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkin deyilgan.

Aqli rasolik shaxsning jinoyatni sodir etayotgan vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglashi va o'z harakatlarini boshqara olishidir [3].

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 181-moddasida aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsning javobgarligi masalasi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur moddaning 1-qismiga asosan jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortiladi. Ushbu moddaning 2-qismiga muvofiq esa aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

Sud psixiatriyasida aqli rasolik va aqli norasolik muhim mavzulardan hisoblanadi. Aqli rasolik shaxsning sodir etayotgan harakatlari mohiyatini to'g'ri tushunishi, uning oqibatini anglashi va harakatlarini boshqara olishidir [4]. Shunga ko'ra aqli noraso deb topilgan shaxs jinoyatning sub'ekti bo'la olmaydi va jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladi. Shu bilan birga amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning aqli rasoligiga nisbatan har qanday shubhalar qachonki, uning o'zini tutishi o'z-o'zini boshqarishga to'g'ri kelmasa, tashqi omillarga noto'g'ri reaksiya va boshqalar aybsizlik prezumpsiyasi mazmunidan kelib chiqib, bunday shaxsning foydasiga hal qilinishi kerak.

Aqli rasolikning yuridik va tibbiy mezonlari mavjud bo'lib, aqli rasolikning yuridik mezoni shaxsning o'z harakatlari (harakatsizligi)ning ahamiyatini anglay olmasligi va

harakatlarini boshqara olmaslik holatidir. Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra shaxsni aqli noraso deb topish uchun tibbiy va yuridik mezonlar bir vaqtda mavjud bo'lishi shart. Bunda tibbiy mezon belgilaridan birining mavjudligi va yuridik mezonning yo intellectual, yo irodaviy belgisining mavjud bo'lishi talab etiladi. Jinoyat sodir etgan shaxs o'zi sodir etgan harakat va uning oqibati uchun haqiqatan javob bera oladimi yoki yo'qmi degan masala sud tomonidan to'liq aniqlanishi lozim.

Yuridik mezonning intellektual belgisi: shaxsning o'z harakatini, uning g'ayriqonuniy va ijtimoiy xavfli ekanligini tushunmasligida namoyon bo'ladi. Faqat yuridik mezonning mavjud ekanligi shaxsni aqli noraso deb topish uchun asos bo'la olmaydi. Shaxsning o'z harakatlari (harakatsizligi)ning mohiyati va ijtimoiy xavfliligini anglay olmaganligi yoki tibbiy mezonga ko'ra o'z harakatlarini boshqara olmaganligi aniqlanishi kerak. Shaxsni aqli noraso deb topish uchun tibbiy mezonga ko'ra, Jinoyat kodeksining 18-moddasida ko'rsatilgan (surunkali ruhiy kasallik, ruhiy holatning vaqtinchalik buzilishi, aqli zaiflik, boshqa tarzdagi ruhiy buzilishlar) ruhiy kasallikning biri mavjud bo'lishi lozim [5].

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining qo'llanilishi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning ruhiy kasalligi uning o'ziga va atrodagi boshqa shaxslarga jiddiy xavf tug'dirishi bilan bog'liqdir. Shu bois aqli noraso shaxsning jamiyat uchun xavfli ekanligini aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Bu masalani hal qilishning muhimligi shundaki, kasal jamiyat uchun xavfli deb topilgandan so'ng quyidagilar aniqlanadi: ushbu shaxsning majburiy davolanishi zarurmi?, Unga tibbiy yo'sindagi qanday majburlov chorasi tayinlanishi mumkin? kabi savollarga to'liq javob topiladi. Aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 2023-yil 1-fevralgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalari bilan. -T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrdagi "Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 23-sonli qarori.

3. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining qo'llanilishi. O'quv qo'llanma. T.X.Fayzullayeva. -Nukus, "Bilim" - 2010.

4. Волков В.Н. Судебная психиатрия. -Москва, 1998.

5. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005.